



Elyorbek TURDIMIRZAYEV^a

^aJunior Research Fellow

Institute of History, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Shahrisabz Tor Str. 5, Tashkent 100060, Uzbekistan

E-mail: turdimirzayevlyorbek@gmail.com

HARB ISHI: ARAB MANBALARIDA AMIR TEMUR MAXFIY XIZMATI FAOLIYATINING YORITILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqola Amir Temurning harbiy siyosatida maxfiy xizmat tizimining tutgan o'rni va ahamiyatini arab manbalari asosida o'rganishga bag'ishlangan. Har qanday harbiy yurish muvaffaqiyati, avvalo, dushman hududining geografik xususiyatlari, tabiiy resurslari, aholining siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy ahvoli haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lish bilan bog'liq. Shu bois Amir Temur o'z davrida ma'lumot to'plash va uni tahlil qilish tizimini yuqori darajada yo'lga qo'ygan.

Shuningdek, maqolada Amir Temur tomonidan tashkil etilgan maxfiy xizmatning tuzilmasi, huquqiy asoslari, moliyaviy manbalari, razvedka va kontrrazvedka usullari, ayg'oqchilarni tayyorlash hamda ularni dushman tomoniga yuborish tizimlari tahlil qilingan. Diplomatiya elchilarning maxfiy axborot yig'ishdagi o'rni, josuslar faoliyatini nazorat qilish tizimi va bu xizmatning harbiy strategiya bilan bog'liqligi yoritilgan. Maqola natijalari Amir Temurning biror jangda mag'lubiyatga uchramasligida uning maxfiy xizmat tizimi muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Ushbu ilmiy ish arab manbalaridagi ma'lumotlarga tayanib, Temuriylar davridagi davlat xavfsizligi, siyosiy boshqaruv va harbiy rejalashtirish tizimini yangi ilmiy talqin asosida o'rganishni ko'zda tutadi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, maxfiy xizmat, ayg'oqchi, arab manbalari, Ibn Xaldun, Mamluklar.

MILITARY AFFAIRS: THE INTELLIGENCE SERVICE ESTABLISHED BY AMIR TIMUR ACCORDING TO ARABIC SOURCES

Abstract. The article is devoted to examining the role and significance of the intelligence service system in Amir Timur's military policy based on Arabic sources. The success of any military campaign primarily depends on possessing in-depth knowledge of the enemy's geographical features, natural resources, and the political, social, and economic conditions of the population. Therefore, Amir Timur established an organized system for gathering and analyzing information at the state level. The research analyzes the structure, legal foundations, financial sources, reconnaissance and counterintelligence methods of the intelligence service founded by Amir Timur, as well as the training of spies and their deployment to enemy territories. In addition, the role of diplomatic envoys in gathering secret information, the control system over spies, and the connection between intelligence work and military strategy are also explored. The findings demonstrate that Amir Timur's unbroken record of victories was largely due to his well-established intelligence system. Based on Arabic sources, this scholarly work aims to reinterpret the mechanisms of state security, political governance, and military planning during the Timurid era from a new scientific perspective.

Keywords: Amir Timur, intelligence service, spy, Arabic sources, Ibn Khaldun, Mamluks.

KIRISH

Har qanday kuchli davlatning ichki barqarorligi va g'alabalari, avvalo, uning axborot tizimining mukammalligi bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, o'rta asrlarda amalga oshirilgan harbiy yurishlarda dushman hududining geografiyasi, siyosiy ahvoli, iqtisodiy imkoniyatlari va ijtimoiy tarkibi haqida aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish g'alabaning muhim omili hisoblangan. Shu nuqtai nazardan, XIV asr oxiri – XV asrning boshlarida dunyo siyosiy maydonida yuksak shuhrat qozongan buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning maxfiy xizmat tizimi alohida e'tiborga loyiq.

Amir Temur o'zining harbiy siyosatida ayg'oqchilik va ayg'oqchilikka qarshi xizmat faoliyatiga nihoyatda katta ahamiyat bergan. Uning nazarida har bir yurishning muvaffaqiyati dushman haqida to'plangan axborotning aniqligi, josuslar tarmog'ining kengligi hamda bu tizimning sadoqat bilan ishlashiga bog'liq edi. Arab tarixchilari, xususan Ibn Xaldun, Ibn Arabshoh, Ibn Hajar Asqaloni kabi mualliflarning asarlarida Amir Temurning axborot to'plash, ayg'oqchilar tayyorlash va dushman ichiga chuqur kirib borishga qaratilgan harbiy harakatlar tizimi haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

ASOSIY QISM

Biz, eng avvalo Amir Temur tomonidan shakllantirilgan maxfiy xizmatning huquqiy asoslariga to'xtalib o'tishimiz kerak bo'ladi. Huquqiy asos deganda ma'lum bir sohadagi farmon, buyruq va qarorlarni nazarda tutiladi. Amir Temurning maxfiy xizmatni tashkil qilish to'g'risidagi farmon yoki qarorlari hujjat shaklida bizgacha yetib kelmagan. Lekin uning bu sohada amalga oshirgan ishlaridan buni anglab yetish mumkin. To'g'ri, bu sohadagi farmonlar bizgacha yetib kelmagani bilan, biz tarixchi o'laroq, tarix falsafasiga murojaat qilib, bilingan ma'lumotlardan bilinmagan ma'lumotlar tomon harakat qilishimiz talab etiladi. Zero, tarixchi manbalardagi har qanday ma'lumotni shunday olib yozadigan bo'lsa, bu ko'chirmachilikdan boshqa narsa bo'lmaydi. Tarixchi sifatida biz kichik ma'lumotlardan butun boshli tarixiy voqelikni tiklashimiz kerak bo'ladi.

Amir Temurning josuslik xizmati o'z davrining bu sohadagi eng ilg'or tashkiloti edi. Buning uchun u barcha huquqiy asoslarni yaratdi. Birinchi navbatda, Amir Temur o'z mamlakati hududida xabar almashinuv tizimini jadallashtirish va kuchaytirish uchun o'zi

hukmronlik qilgan har bir hududda maxsus bekatlarni tashkil qilish, ularda almashtirish uchun otlarni saqlash haqida farmon chiqargan (Ruy Gonsales de Klavixo. 2023:117). Bundan tashqari, maxfiy xizmat faoliyatini olib boruvchi shaxslarga juda katta huquq va vakolatlar berilgan. Agar u yo'lda vazifasi yuzasidan biror narsaga ehtiyoj sezsa, uning bu ehtiyoji o'sha zahoti qondirilgan. Samarqandga Kastiliya qirolining elchisi sifatida kelgan Ruy Gonsales Klavixo¹ bu jarayonni quyidagicha bayon qiladi: «Bu yerda amalda bo'lgan odatga ko'ra, Amir Temurning askarlaridan biri yo'lda biror shahzoda, yoki savdogar yoki bo'lmasa boshqa bir odamga duch kelib, unga otga ehtiyoji borligini aytsa, ular darhol otdan tushib, uni topshiriq bilan ketayotgan askarga berishga majbur bo'ladi. Biror kishi bu buyruqni bajarmasligi mumkin emas. Agar o'ylanib qolsa yoki rad qilsa, boshi tanasidan judo qilinadi. Askar shu holda olingan ot bilan eng yaqin shaharchaga borar va u yerda otini almashtirar edi. Yo'lga chiqqan askar Amir Temurning o'g'liga uchrasa ham, shahzodaning ixtiyorida odamlar otlaridan tushadilar va Amir Temur tomon ketayotgan askarga otlarini beradilar. Amir Temur bu tashkilotni faqatgina Samarqandda emas, mamlakatning har bir yerida tashkil qilgan. Buning natijasida har tarafdan juda tezkor ravishda xabarlar olinar edi va Temurning maxsus kishilari kecha-kunduz aylanib yurar edilar. Temur bu kishilarni muntazam aylanib yurishlarini xohlagani uchun ular bir kunda ellik farsah yo'l bosar edilar» (Ruy Gonsales de Klavixo. 2023:117-118). Amir Temur maxfiy xizmatni amalga oshirishda yana bir huquqiy asos – maxsus xizmat kishilari bo'lgan ayg'oqchilarga maxsus guvohnoma berish tartibini yo'lga qo'ygan. Ayg'oqchi bu guvohnoma bilan mamlakat ichida to'siqsiz harakatlana olgan. Klavixo Amudaryoni kechib o'tishni xohlagan kishi usti yozuvli guvohnoma ko'rsatmasdan turib, Samarqandga kira olmasligini aytgan (Ruy Gonsales de Klavixo. 2023:130). Bu yo'l bilan bir tomondan dushman tomonning ayg'oqchilik faoliyatlariga qarshi chora-tadbirlarni olib borish, ikkinchi tomondan, maxsus xizmat xodimlari va boshqa mansabdorlarga qulaylik yaratish ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin.

Amir Temur maxfiy xizmatni moliyalashtirish borasida ham katta ishlarni amalga oshirgan. Shulardan biri o'zi tomonidan tashkil qilingan bekatlarda muntazam ravishda ot saqlash bo'lgan. Otlarning soni yuztadan ikki yuztagacha bo'lgan (Ruy Gonsales de Klavixo. 2023:117). Bundan tashqari, Amir Temur maxfiy xizmat xodimlarini mukofotlash ishiga ham

¹ Ruy Gonsales de Klavixo – Kastiliya qirol Genrix III tomonidan 1403-yilda Amir Temur huzuriga yuborilgan elchi.

katta e'tibor qaratgan. Jumladan, Arab tarixchisi Ibn Shihna² Amir Temur Hindiston safaridan qaytishda mamluk sultoni Barquqning o'lgani haqida ma'lumot yetkazgan ayg'oqchisiga bitta katta tuya berganini qayd etgan (Ibn Shihna. 1997:297). O'sha davrda tuya asosiy transport vositasi ekanini hisobga oladigan bo'lsak, Amir Temur ayg'oqchilarni yaxshigina mukofotlaganini ko'ramiz.

Amir Temur maxfiy xizmatning tarkibida savdogarlar, hunarmandlar, darveshlar, ilm odamlari, ko'chadagi masxarabozlar va boshqa kishilar bor edi. Ular o'zlarini bu ko'rinishga kirgizib olgani bilan maxsus tayyorgarlikdan o'tgan harbiylar bo'lishgan. Arab manbalarida bu haqda shunday deyilgan: «Amir Temur ayg'oqchilarining ichida Qohirada asirlikda bo'lgan Atalmish³ kabi amirlar, faqih Masud Gajjoniy⁴ kabi devondagi kishilar yoki Damashqdagi Sumaysatiya takkasidagi so'fiylardan tortib, oddiy mayda savdogar, yirik tojir, axloqsiz bir pahlavon, bezori, jafokor, hunarmand, munajjim, darvesh, dengizchi, sayyoh, etikdo'z, alvasti va hiylakor kampir, ilm olish uchun sharqdan g'arbga tomon aylanib yurgan talaba qiyofasiga kirib olgan kishilar bor edilar» (Ibn Arabshoh. 2019:399). Amir Temurning ayg'oqchilari o'zlari bo'lgan yerdagi hamma narsani eng nozik jihatlariigacha unga bildirar edilar. U yerdagi og'irlik o'lchovlar birliklari, narx-navo, mintaqaning tekis va notekis joylarini unga tasvirlab berar edilar. Ayg'oqchilar o'zlari bo'lgan shahar va qishloqlar xaritasini, yo'llarni, uylarning tuzilishi, masofa va kengliklarni eng nozik nuqtalariigacha chizar edilar. Hatto ayg'oqchilar yuborilgan hududlaridagi amirlar, asilzodalar, boy va faqirlarning ismlari, laqablari, mavqei, nasablari va kasblariigacha ma'lumot to'plab, uni Amir Temurga yetkazar edilar. Amir Temur ham butun diqqat-e'tiborini ushbu ma'lumotlarga qaratib, muayyan shaharni egallashi bilan undagi obro'-etiborli kishilarini chaqirib, «falonchi nima qilayapti?», «bu voqea nima bo'ldi?», «falonchi bilan pistonchi orasidagi janjal nima bo'ldi?» kabi savollarni berar edi. Natijada, ular bu savollardan ajablanib, Amir

Temurni bu narsalardan bevosita xabardor deb o'ylar edilar (Shamsuddin Saxoviy. 1992:49., Ibn Arabshoh. 2019:399-400). Mashhur arab tarixchisi Taqiyuddin Maqriziy⁵ Mamluklar hukmronligi ostidagi Misr aholisi hukmron tabaqa, savdogarlar hamda o'ziga to'q kishilar, o'rtahol savdogarlar, dehqonlar, talabalar, hunarmandlar, miskin va tilanchilar kabi toifalarga bo'linishini aytadi (Maqriziy, 2021:87). Bu ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, Amir Temur aholi ijtimoiy qatlamlarining barcha tabaqalariga o'z ayg'oqchilarini joylashtirgan. Fikrimizcha, bu bilan u o'zi yurish qilmoqchi bo'lgan mamlakatlarning geografik, siyosiy, xarbiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy holatlari, bu sohalarida ularning kuchli va zaif tomonlari, bundan tashqari aholining o'z hukmdori va davlat amaldorlariga munosabatini jiddiy o'rganishga harakat qilgan. Bu fikrimizga yana bir dalil sifatida Amir Temurning mamluk sultoni Barquqqa⁶ yuborgan xatini keltirish mumkin. Xatda Amir Temur mamluk sultonining adolatsizligi, poraxo'rlikka hamda yetimlarning haqqini yeyishga ruju qo'yganini ta'kidlagan (Ibn Hajar Asqaloniy. 1994:474., Maqriziy. 1997:350., Cüneyt Kanat. 2022:59). Albatta, Amir Temur bu ma'lumotlarni ayg'oqchilari yordamida aniqlagani sir emas. O'sha davr tarixchisi Maqriziy o'zining «Misrda qurg'oqchiliklar va moliyaviy inqiroz» asarida qayd etishicha, Barquq zamonida «poraxo'rlik avjiga chiqqan, amaldorlar mansabga kelish uchun sultonga katta miqdorda pora berishgan. Natijada, amaldorlar bergan poralarining o'rnini qoplash uchun aholiga ko'p zulm qilishgan. Aholi esa juda nochor ahvolga tushib qolgan» (Maqriziy. 2021:62).

Arab manbalarida yana bir qiziq ma'lumot uchraydi. Amir Temur boshqa mamlakatlarga ayg'oqchilarni kiritish usularidan biri shundan iborat bo'lganki, ayg'oqchi o'zini Amir Temurning huzuridan qochib kelgan qochqin sifatida ko'rsatgan. Bunga Ibn Hajar Asqaloniy⁷ o'z asarida «Masud ibn Muhammad Gajjoniy Tabrizdan Amir Temurning oldidan qochib keldi. Bir muddatdan so'ng ayon bo'ldiki, u Temurning ayg'oqchisi ekan», degan gapi ifodasi misol bo'ladi (Ibn Hajar Asqaloniy. 1994:474).

Amir Temur biror mamlakat hududiga harbiy yurishni amalga oshirmoqchi bo'lsa u yerga bir necha

² Ibn Shihna – 1348–1412-yillarda yashab ijod qilgan mamluk tarixchisi. 1400-yilda Amir Temur Halab shahrini egallaganda Amir Temur bilan uchrashgan.

³ Atalmish qavchin – Amir Temurning eng yaqin kishilaridan biri. Amir Temur 1394-yil uni Avniq qal'asiga qutvol qilib qo'yadi. Amir Temurning 1395-yilda To'xtamishga yurishi vaqtida Qora Yusuf turkman Avniq qal'asiga hujum qilib, Atalmishni asir oladi va uni Misr sultoni Barquq huzuriga yuboradi. Shundan so'ng u Misrda mamluklar qo'lida asirlikda qoladi.

⁴ Masud Gajjoni – Amir Temur devonidagi mansabdorlardan biri. Amir Temur 1402-yil usmoniylar ustidan g'alaba qozongandan so'ng uni mamluk sultoni Faraj huzuriga yuborgan elchilik delegatsiyasiga rahbar qilib tayinlaydi.

⁵ Taqiyuddin Maqriziy – 1360–1451-yillarda yashab ijod qilgan arab tarixchisi.

⁶ Malik Zohir (Barquq) – 1381–1399-yillarda mamluklar davlatini boshqargan hukmdor.

⁷ Ibn Hajar Asqaloniy – 1372–1449-yillarda yashab ijod qilgan arab tarixchisi.

yillar oldin o'z ayg'oqchilarini yuborib, u yerdagi vaziyatni sinchiklab o'rgangan. Arab tarixchilari 1387-yilda Suriya noibi Amir Temurning ayg'oqchisi sifatida gumonlangan bir kishini qo'lga olib, uni qiynoqlar bilan so'roq qilgani, buning natijasida uning yana ikki sherigi borligi aniqlanganini qayd etishgan (Maqriziy. 1997:199., Ibn Hajar Asqaloni. 1994:336., Ali Ibn Duvod. 1970:155). Bundan tashqari, 1393-yilda Halab⁸ noibining odamlari tomonidan Amir Temur uchun ayg'oqchilik qilgan Davlat Xo'ja ismli shaxs ham qo'lga olinadi. U Halab noibi Sulton Barquq huzuriga yuboriladi. Olib borilgan qattiq surishtiruv natijasida Amir Temur Qohiraga ham juda ko'plab ayg'oqchilarni yuborgani o'rta qayd chiqadi. Natijada, Qohirada yana yetti kishi ayg'oqchi sifatida ushlanadi (Maqriziy. 1997:348., Ibn Hajar Asqaloni. 1994:474., Cüneyt Kanat. 2022:57). Agar biz bu ma'lumotlarga suyanadigan bo'lsak, Amir Temur Mamluklar davlatiga keng ko'lamli harbiy yurishdan 13-14 yil oldin va balki undan ham avval o'z ayg'oqchilarini yuborgan.

Amir Temur ayg'oqchilari orqali nafaqat mamlakatlarning geografik, siyosiy, harbiy, ijtimoiy-iqtisodiy holatlari haqida ma'lumotlar olgan, balki qo'shimcha tarzda ayg'oqchilarga olimlar haqida ham ma'lumotlar to'plashni buyurgan. Bunga ikki asosli dalilni keltirish mumkin. Birinchisi, hammaga ma'lumki, Amir Temur yurish qilgan mamlakatlaridagi olimlarni to'plab Samarqandga yuborib, ularga ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan. Bu olimlar haqida ayg'oqchilari orqali ma'lumot olgan. Ikkinchisi dalil esa Amir Temur 1401-yilda Damashq shahrini egallaganida, xalq nomidan omonlik so'rab kelgan Qozi Burhoniddin ibn Muflih Hanbaliy⁹dan Ibn Xaldun¹⁰ning qayerda ekanligi haqida so'raydi. Bu voqeani Ibn Xaldun «Tarixi Ibn Xaldun» asarida shunday yozadi: «Qozi Burhoniddin Amir Temur men haqimda qiziqib, askarlar bilan Misrga ketgan-ketmaganligimni surishtirganini aytdi. Qozi unga men turgan joy, ya'ni madrasada ekanimni aytibdi» (Ibn Xaldun. 2000:730). Ushbu ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, Amir Temur Ibn Xaldun haqida hali u bilan ko'rishmasidan oldin ma'lumotga ega bo'lgan. Butun dunyo ilm ahli Ibn Xaldunni jamiyatshunoslik fanining asoschisi va tarix ilmining nazariyotchilaridan biri sifatida qabul qilishini hisobga oladigan bo'lsak,

⁸ Halab – zamonaviy Suriyaning shimoli-g'arbida joylashgan shahar.

⁹ Qozi Burhoniddin ibn Muflih Hanbaliy – Damashq bosh qozisi sifatida faoliyat ko'rsatgan shaxs, Amir Temur mamluklar qo'shinini mag'lub etgan vaqtda xalq nomidan Amir Temurdan omonlik so'ragan.

¹⁰ Ibn Xaldun – 1332–1406-yillarda yashab ijod qilgan tarixchi, faylasuf.

Amir Temur bekorga bu alloma haqida ma'lumot egasi bo'lmaganini tushunish qiyin emas. Ibn Arabshoh ham Ibn Xaldun tarix ilmida yangi metodologiya ishlab chiqqanini qayd qilgan (Ibn Arabshoh. 2019:395).

Biz Amir Temurning ayg'oqchilik xizmati haqida kichik bir izlanish olib borar ekanmiz, shunga amin bo'ldikki, Amir Temur elchilaridan ham ayg'oqchi sifatida foydalangan. Bizni bu to'xtamga kelishimizga sabab bo'lgan birinchi omil Amir Temur boshqa mamlakatlar bilan olib borilgan munosabatlarda o'zi tashabbus bilan birinchi elchi yuboradi. Bunga misol tariqasida Amir Temur Xitoydagi Min sulolasi, Misrdagi mamluk davlati va Onado'lidagi Usmoniylar sulolasi bilan olib borilgan munosabatlarda o'zi tashabbus bilan birinchi bo'lib elchi yuboradi. Shuni qayd etish lozimki, yuqorida sanab o'tilgan davlatlar o'sha vaqtda Amir Temurga raqobat qilishi mumkin bo'lgan qudratli mamlakatlar edi. Bu so'zimizga manbalardan dalillar keltiradigan bo'lsak, Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganidan boshlab 17 yil davomida Xitoy bilan hech qanday munosabat o'rnatmagan. Yazdiy 1388-yilning fevral oyida Xitoy hukmdoriga elchi qilib yuborilgan Nizomiddin Qoshg'ariy qaytib kelgani va Xitoy haqida ma'lumot berganini qayd qilgan (Shyerefüddin Ali Yezdi. 2013:390-391). Yuqoridagi ma'lumotda elchi Amir Temurga Xitoy haqida ma'lumot bergani aytilmoqda. Bu qanday ma'lumot ekanini anglash qiyin emas. Shuningdek, Amir Temur tomonidan yuborilgan elchi bir tuman, ya'ni o'n ming kishilik qo'shin qo'mondoni ekanini inobatga olsak, bu yanada oydinlashadi¹¹. Shu bilan birga, Amir Temur Xitoyning geografik holati, aholisi, iqlimi va mahalliy xususiyatlari haqida ma'lumot to'plash uchun Xitoyga elchilarni yuboradi. Shu maqsadda Amir Temur elchilarini Xitoy poytaxtiga yuborib, yarim yil shu yerda qolib, ma'lumot yig'ishni buyuradi. Bir ma'noda, buni josuslik faoliyati desa ham bo'ladi (Xirenay Aizizi. 2018:11). Xitoy tarixchilaridan Jiguang Wang Min hukmdorlari Hongvu¹² va Yongle¹³ davrida Xitoy va Amir Temur o'rtasidagi munosabatga bag'ishlangan tadqiqotida Amir Temur Xitoy hukmdoriga tobe bo'lmagan holda, Xitoyga savdogarlar orqali hadyalar yuborgan. Bu savdogarlar Xitoy haqida ma'lumot to'plashgan. Bu Amir Temur Xitoy tomon katta ko'lamli harbiy yurishga tayyorgarlik ko'rganidan dalolat beradi (Ahat Andican, 2019:393).

¹¹ Xitoy solnomalarida Nizomiddin Qoshg'ariy bir tuman qo'shinining qo'mondoni bo'lgani qayd qilingan. Qarang: Ahat Andican, Emir Timur: Tarix, Siyaset, Miras. 2019. S. 391.

¹² Hongvu – Min sulolasi hukmdori.

¹³ Yongle – Min sulolasi hukmdori.

Amir Temur bilan Sulton Barquq o'rtasidagi dastlabki rasmiy munosabat Temurning 1385-yilda Barquqqa maxsus elchi orqali maktub yuborishidan boshlangan (Maqriziy. 1997:179). Bu yerda ham Amir Temur birinchi elchi yubormoqda. Amir Temur va Usmoniylar o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1395-yilning bahorida Amir Temurning Sulton Boyazidga yo'llagan maktubi bilan boshlangan. Amir Temurning bu xati Sulaymoniya kutubxonasidagi «Munshaoti Sari Abdulloh Afandi» fondida 3333-raqam ostida saqlanadi (Ahat Andican. 2019:224-225). Bu yerda ham Amir Temur birinchi bo'lib elchi yubormoqda. Ikkinchi omilga to'xtaladigan bo'lsak, Amir Temur yuqoridagi mamlakatlarga to'xtovsiz va davomli tarzda elchi yuborib turgan. Bu narsa manbalarda ochiq-oydin qayd qilingan. Amir Temur bundan nimani ko'zlagan bo'lishi mumkin degan savolga keladigan bo'lsak, uning ayg'oqchilari turli mamlakatlardagi geografik, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holat haqida yetarlicha ma'lumot to'plashi mumkin bo'lgan. Biroq saroy ichidagi muhit haqida ma'lumot olish murakkab edi. Shuning uchun Amir Temur saroy ichidagi muhit to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish uchun elchilarni yuborar edi.

Mazkur ma'lumotlar Amir Temur tomonidan yo'lga qo'yilgan ayg'oqchilik xizmati haqida edi. Endi boshqa mamlakat hukmdorlarining Amir Temur huzuriga yuborgan ayg'oqchilari hamda Amir Temurning ularni bartaraf etishga qaratilgan faoliyatiga to'xtaladigan bo'lsak, birinchidan, Amir Temur qo'shinni doimiy ravishda harakatli holda tutgan. U qo'shinni har qanday vaziyatga tayyor turishga, har qanday vaqtda va har qaysi tomonga yurishga moslashtirgan. Bu narsa esa ko'pincha dushman ayg'oqchilarini chalg'itib qo'ygan. Amir Temur biror yerga harakatlanmoqchi bo'lsa, avval keng miqyosda mashvarat o'tkazar, bu mashvaratda bir qaror olinib, uni barchaga ma'lum qilar edi. Shundan so'ng o'zining eng ishonchli odamlarini to'plab, ular bilan maslahatlashar, ularni tinglab, muayyan xulosaga kelar edi. Amir Temurning bu xulosasini o'zidan boshqa hech kim bilmas edi. Buning natijasida Amir Temurning qo'shini ichidagi ayg'oqchi o'z hukmdoriga avvalgi ma'lumotlarni yuborar edi. Amir Temur esa qo'shinni qaysi tomonga harakatlanishini harakat boshlangan vaqtda aytar edi (Ibn Arabshoh. 2019:402-403). Amir Temur qo'shin harakatlariga oid rejalarni sir saqlashga alohida ahamiyat qaratgan. Ibn Arabshohga ko'ra, Amir Temur askarlarini to'plab, Samarqanddan chiqadi va qayerga yo'l olishini aytmaydi. U atrofdagi shaharlar – Xo'jand, Turkiston va Jand

tomon harakat qilish haqidagi gaplarni tarqattiradi. So'ngra bir muddat g'oyib bo'lib, zamonaviy Eronning janubi-g'arbidagi Luriston atrofida paydo bo'ladi (Ibn Arabshoh. 2019:135) Sultoniylar Joannes¹⁴ ham Amir Temurning sir-sinoati haqida «Amir Temur xayolidan o'tkazayotgan narsalarini yer yuzida yashagan insonlardan faqat o'zi bilar edi», (Sultaniyyeli Johannes. 2020:92) deydi. Arman tarixchisi Tovma Metsopskiy¹⁵ o'zining «Temurlang va vorislari tarixi» asarida Muzaffariylar hukmdori Shoh Mansur¹⁶ Amir Temurga qarshi uzoq muddat muvaffaqiyatli kurashib, Isfahon, Sheroz va Kirmon shaharlarini himoya qilgani, yakunda ular o'rtasida sulh tuzilib, Amir Temur orqasiga qaytib ketganini aytib, Shoh Mansur Amir Temurni holatini o'rganish uchun sovg'a-salomlar bilan elchi yuborganini qayd etgan. Elchi kelganini bilgan Amir Temur unga o'zini bir-ikki kunda o'ladigan kasal qilib ko'rsatadi. Ya'ni, elchining oldida mis idishga o'zini go'yoki qon tupurgan qilib ko'rsatadi. Buni ko'rgan elchi xursand bo'lib, Temur bugun yoki ertaga o'ladi deb o'ylaydi va bu xabarni Shoh Mansurga yetkazadi. Shoh Mansur bu xabardan so'ng xotirjamlikka beriladi. Amir Temur esa shu zahoti qo'shinni to'plab, uch-to'rt kunlik masofani bir kunda bosib o'tib, kutilmaganda Isfahon shahriga yetib keladi (K. Şahnazaryan, C. Bakihanov, Gürsoy Solmaz. 2010:186). Ibn Arabshoh Temur o'zi avval Ashparaga jo'natgan amiri Ollohdoddan Xitoy hududlarigacha bo'lgan barcha yo'llar, manzillar, quduqlar, sahrolar va boshqa shu kabi malumotlarni mufassal tarzda yuborishini so'rganini zikr qiladi. Shubhasiz, bu ma'lumotlar Temurning Xitoyga yurishida foydalanishi ko'zda tutilgan (Ibn Arabshoh. 2019:51).

MUHOKAMA

Shubhasiz, Amir Temur ayg'oqchilik tizimini o'zining strategik fikrlash qobiliyati bilan birlashtirishiga to'g'ri kelgan. Ibn Xaldun Amir Temur bilan qilgan ilk suhbatida tug'ilib o'sgan vatani – Ichki Mag'rib (al-Mag'rib al-javvoniy)ni tasvirlar ekan, uning atrofida joylashgan hududlar sifatida

¹⁴ Sultoniylar Joannes – Sultoniya'dagi katolik cherkovi arxiyepiskopi. Amir Temur Sultoniyani qo'lga kiritgandan so'ng, temuriylar saroyiga yaqin odamga aylandi va natijada 1398-yilda Amir Temur elchisi sifatida Venetsiya va Genuyaga yuborildi.

¹⁵ Tovma Metsopskiy – XV asrda yashab ijod qilgan arman tarixchisi.

¹⁶ Shoh Mansur – Eronda hukm surgan Muzaffariylar sulolasi hukmdori (1387–1393).

Barqo¹⁷, Ifriqiya¹⁸, al-Mag'rib al-avsat¹⁹, Tilmison²⁰ va Zannota²¹ kabi joy nomlarini zikr qilib o'tganidan so'ng, Fas²² va Marokash²³ni ham Mag'ribi Aqso deb nomlanganini aytadi (Ibn Xaldun. 2000:731). Biz bu yerda juda muhim nuqtaga ahamiyat qaratishimiz kerakki, Amir Temur Ibn Xaldundan u nomlarini aytmasdan turib, Tanja²⁴, Sabta²⁵ va Sijilmasa²⁶ haqida ma'lumot berishini so'raydi (Ibn Xaldun. 2000:732). Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: Amir Temur o'z ayg'oqchilarini bugungi kundagi Shimoli-g'arbiy Afrika mintaqalariga ham yuborgan. Bu yerda yana bir jihatga e'tibor qaratish lozim. Sabta Gibraltar bo'g'ozining Afrika qirg'oqlarida joylashgan Ispaniyaga qarashli yagona hudud hisoblanadi. Bundan tashqari, u Afrikadan Ispaniyaga o'tadigan eng yaqin joy hisoblanadi. Sijilmasa esa Sahroi Kabirga kirish eshigi, islom olamini Sudan bilan bog'laydigan tarixiy karvon yo'lida joylashgan. Tanjaga keladigan bo'lsak, u Marokashning okeanga qaragan qismida joylashgan bo'lib, muhim strategik ahamiyatga ega. U 1923–1952-yillarda G'arb davlatlari tomonidan xalqaro maxsus maqomga ega mintqa sifatida qabul qilingan. Bularning barchasini inobatga oladigan bo'lsak, Amir Temurning bu shaharlar haqidagi savollari tasodifiy emasligi ayon bo'ladi (Ahat Andican. 2019:443). Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Amir Temur mintaqalar geografiyasining o'ta muhim strategik nuqtalariga ham e'tibor qaratgan.

¹⁷ Barqo – Liviya sharqidagi qirg'oq hudud.

¹⁸ Ifriqiya – Ibn Xaldun Tunisning markaziy va shimoliy hududlarini ifodalash uchun «Ifriqiya» atamasini qo'llagan. Bugungi kunda bu nom butun qit'aga nisbatan ishlatiladi. Qit'aning shimoliy qismi, jumladan, Mag'rib Shimoliy Ifriqiya deb ataladi.

¹⁹ Al-Mag'rib al-avsat – Tunis va Jazoirni o'z ichiga olgan Mag'ribda (Markaziy Mag'rib), Jazoirning shimoli-g'arbiy qismida, Marokash chegarasi yaqinidagi hudud nomi.

²⁰ Tilmison – Jazoirning g'arbida joylashgan shahar nomi.

²¹ Zannota – Jazoirning g'arbida joylashgan shahar nomi.

²² Fas – Afrikaning shimoli-g'arbida joylashgan mintqa nomi.

²³ Марокаш – Африканинг шимоли-ғарбида жойлашган давлат номи.

²⁴ Tanja – Afrikaning shimoli-g'arbida, Gibraltar qirg'oqlarida joylashgan shahar nomi.

²⁵ Sabta – Shimoliy Afrikadagi Ispaniyaga tegishli hudud. Ispaniya konstitutsiyasiga ko'ra, u Malilla bilan birga avtonom hudud maqomiga ega hisoblanadi. Marokash chegarasi bilan o'ralgan shaharning maydoni 19 km²ni tashkil etadi. Shahar O'rta Yer dengizida 20 km.dan iborat qirg'oq chegarasiga ega, Marokash bilan chegarasi esa 8 km.ni tashkil etadi.

²⁶ Сижилмаса – Марокашнинг жануби-шаркидаги тарихий шаҳар номи.

Amir Temur Ibn Xaldundan yuqorida sanab o'tilgan hududlardagi tog'lar, daryolar, shahar va qishloqlarning xaritasini berishini so'raydi. Ibn Xaldun uning bu istagini amalga oshiradi (Ibn Xaldun. 2000:732). Ibn Arabshoh Amir Temurning Ibn Xaldun bilan kechgan suhbat haqida shunday yozadi: «Temur o'z odati va fe'liga ko'ra Ibn Xaldundan Mag'rib shaharlari va hududlari haqida so'rab, undagi mavzalar, yo'llar, qishloqlar, so'qmoqlar, qabila va xalqlarni batafsil tavsiflab berishini so'raydi. Bundan maqsad esa Ibn Xaldunni imtihon qilish bo'lib, Temur bu narsalarga muhtoj emas edi. Chunki u bu joylar haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lgan. Bu bilan Temur Ibn Xaldunning ilmiy darajasini sinovdan o'tkazib, uning o'ziga nisbatan muomalasi samimiy yoki yuzaki ekanini aniqlamoqchi bo'lgan» (Ibn Arabshoh. 2019:396).

NATIJA

Amir Temur shunday tizim barpo etganki, u qayerda bo'lishidan qat'i nazar, unga raqiblari haqida doimo ma'lumot taqdim etib turilar edi. Bu tizim unga keyingi yurish qanday bo'lishini, qaysi raqibga hujumga o'tishni, qanday taktika qo'llashni va shu kabi boshqa masalalarni yechish imkonini bergan. Bu Amir Temur muvaffaqiyatining zamirida yotgan eng muhim omillardan biri bo'lgan. Mazkur tizimning ishlashiga keladigan bo'lsak, ayg'oqchilar o'zlari yuborilgan mamlakatlarda turli xil ko'rinishlarda muhim ma'lumotlarni to'plash bilan shug'ullanganlar. Shubhasiz, ushbu ayg'oqchilar maxsus harbiy tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislar edilar. Ular o'zlari to'plagan ma'lumotlarni Amir Temurga yetkazishga xizmat qiladigan maxsus xabarchilarga taqdim etganlar. Xabarchilar esa ularni hukmdorga yetkazganlar. Bundan tashqari, Amir Temur josuslik xabarlarini bevosita o'zi yuborgan elchilardan olgan holatlar ham uchrab turgan. Boshqa bir usulda esa bevosita asosiy qo'shin bilan birga bo'lgan qo'shining old qismidan foydalangan. Jumladan, ular harbiy yurishlar chog'ida asosiy qo'shindan oldinga o'tib, dushman qo'shini haqida ma'lumot to'plab, uni Amir Temurga ma'lum qilib turgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Amir Temur o'z davrining eng zamonaviy va eng qudratli qo'shinini hamda unga munosib bo'lgan maxfiy xizmat tizimini yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'lgan. Bu haqda Amir Temurga yaqin bo'lgan tarixchilarning asarlarida

ham, unga dushman munosabatida bo'lgan arab va arman muarrixlarining manbalarida ham qayd qilib o'tilgan. Ayniqsa, arab manbalarida Amir Temurning maxfiy xizmati haqida birmuncha to'laqonli ma'lumotlar keltirilgan. Amir Temurning ayg'oqchilari aholining barcha tabaqalari ichiga kirib borib, ma'lumotlar to'plashgan. U ayg'oqchilari yordamida mamlakatlarning eng muhim strategik nuqtalari, savdo yo'llari, bir hududdan ikkinchi hududga o'tadigan eng yaqin joylar, daryo va dengizga olib chiqadigan yo'llar, bozorlardagi narx-navolar, aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida ma'lumotlar ega bo'lgan. Ayg'oqchilik xizmatida faoliyat yuritayotgan harbiylarga katta mukofotlar bergan. Bundan tashqari, dushman tomonidan yuborilgan josuslarni juda ustomonlik bilan chalg'ita olgan. Amir Temur yo'lga qo'ygan bu xizmat o'z davri uchun juda mukammal tizim bo'lib, uning bexato ishlashi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Clavijo, R. G. (2023). Timur Döneminde Kadis'ten Semerkant'a Seyahat. Ankara: Dorlion Publishing.
2. Ibn Shihna. (1994). Rovzul manozir fi ilmi availi va avaxiri. Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
3. Ibn Arabshoh. (2019). Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. Tashkent: Fan Publishing House.
4. Saxoviy, S. (1992). Az-zov ul-lam' li ahli qorn at-tasi'. Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
5. Makrizi. (2021). İğasetü'l-Ümme. Ankara: Ankara Okulu Publishing.
6. Asqaloni, I. H. (1994). Inbail gumur bi anail umur. Cairo: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
7. Maqriziy, T. (1997). As-suluk lima'rifati duval al-Muluk. Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
8. Kanat, C. (2022). Memluk Timurlu münasebetleri. Ankara: Turkish Historical Society.
9. As-Sirofiy, A. I. D. (1970). Nuzhatun nufus va al-abdan fi tavarixi az-zaman. Cairo: Dar al-Kutub Press.
10. Ibn Xaldun. (2000). Tarixi ibn Xaldun. Beirut: Dar al-Fikr.
11. Andijan, A. (2019). Emir Timur: Tarih, Siyaset, Miras. Istanbul: Selenge Publishing.
12. Yezdi, S. A. (2013). Zafernâme. Istanbul: Selenge Publishing.
13. Aizizi, X. (2018). Timurlu döneminde Orta Asya ve Çin ilişkileri. Istanbul: Istanbul University Press.
14. Şahnazaryan, K., Bakihanov, C., & Solmaz, G. (2010). Toma Metsopski'nin «Timurlenk ve haleflerinin tarihi». Erzurum: Ataturk University Press.
2. Ibn Shihna. (1997). Rawd al-manazir fi 'ilm al-awail wa al-awakhir. Dar al-Kutub al-'Ilmiyya.
3. Ibn Arabshah. (2019). Ajoib al-maqdur fi tarikh Taymur. Fan Publishing House.
4. Shamsuddin as-Sakhawi. (1992). Az-zaw' al-lami' li-ahl al-qarn at-tasi' (Vol. 3). Dar al-Jamil.
5. Al-Maqrizi, Taqiyuddin. (2021). İğasetü'l-ümme. Ankara School Publications.
6. Ibn Hajar al-'Asqalani. (1994). Inba' al-ghumr bi-anba' al-'umr (Vol. 1). At-Turath al-Islami.
7. Al-Maqrizi, Taqiyuddin. (1997). As-suluk li-ma'rifat duval al-muluk (Vol. 5). Dar al-Kutub al-'Ilmiyya.
8. Cuneyt Kanat. (2022). Memluk-Timurlu münasebetleri. Turkish Historical Society Publications.
9. Ali ibn Dovud as-Sirofiy. (1970). Nuzhatun nufus wa al-abdan fi tavorikh az-zaman (Vol. 3). Matba'atu Dar al-Kutub.
10. Ibn Khaldun. (2000). Tarikh Ibn Khaldun (Vol. 7). Dar al-Fikr.
11. Ahat Andijan. (2019). Emir Timur: Tarih, siyaset, miras. Selenge Publications.
12. Sherefuddin Ali Yazdi. (2013). Zafernâme. Selenge Publications.
13. Xirenay Aizizi. (2018). Timurlu döneminde Orta Asya ve Çin ilişkileri. (Unpublished work/Research).
14. K. Şahnazaryan, C. Bakihanov, & Gürsoy Solmaz. (2010). Toma Metsopski'nin «Timurlenk ve haleflerinin tarihi».

REFERENCES

1. Ruy González de Clavijo. (2023). Timur döneminde Kadis'ten Semerkant'a seyahat. Dorlion Publications.